

“O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “Orol tabiiy geografik o‘lkasi” mavzusini o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish.

**UrDU akademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi
Atabayeva Mavjudha Rustamovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “Orol tabiiy geografik o‘lkasi” mavzusini o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursini o‘zlashtirishda klaster metodining ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, klaster, metodika, pedagogika, geografiya, tabiiy geografiya, pedagogic texnologiya

Hozirgi zamон yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganini, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlash va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishda va ongini yanada rivojlantirishda, ta’lim tizimidagi barcha yangiliklardan barobar bo`lib borishi kerakligini asosiy motif bo`lib xizmat qiladi.

«Ta’lim to‘g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talabi har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ishga bolaning bog`chada ilk saboqlarini olayotgan paytdan boshlab e’tibor qaratish lozim. Uzluksiz ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan talablaridan biri- ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyatga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, kasb-hunarli, Ona-Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat va jamiyat oldida o‘z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g`oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishi ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik – psixologik tushunchalar, interfaol metodlari ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo`llanilib borilishi, ta’lim mazmunini tubdan o‘zgatirib yuboradi desak mubolog`a bo`lmaydi. Zamonaviy o‘qtuvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissiyor” bo`lishi kerakligini anglashi lozim. U o‘z o`quvchi-talabalarining fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik hissiyotlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullarida foydalangan holda darsni tashkil etish kerak bo`ladi. Buning uchun esa bir necha yangicha ta’lim usullarinui yaxshi bilishi kerak.

Interfaol metodlar ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarflamaydi, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko`nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o`qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o`qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo`lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o`quvchining bergen savoliga qarab uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.

Dars mashg`ulotlari interfaol o`qitish usullaridan, o`yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutqiy tovush madaniyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi. Interfaol o`qitish usullarida bolalar o`quv jarayonining markaziy figurasi bo`lib, bunda uquv jarayoni bolalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O`qitish usullarini o`zaro bog`lab mashg`ulot o`tilsa bolalar tomonidan uni o`zlashtirish samarali bo`ladi.

Darslik matnidagi bilim- ko`nikmalarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishda esa klaster metodi juda qulay hisoblanadi. “O`zbekiston tabiiy geografiyasi”ning “Orol tabiiy geografik o`lkasi” mavzusida klaster merodini qo`llashning afzalliklari bilan tanishib chiqsak.

Mavzu: *Orol tabiiy geografik o`lkasi*

Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning maqsadi:

Ta`limiy maqsad: O`quvchilarga Orol tabiiy geografik rayonining geografik o`rni, yer yuzasi va geologik tuzilishi haqida ma'lumot berish

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat tuyg`usini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, nutq madaniyatini o`stirish, o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, hozirjavoblik, topqirlilik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Ta`lim beruvchi, interfaol.

Dars o`tish metodi: Klaster metodi, interfaol.

Dars jahozi: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 7-sinf darsligi, atlasi, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,


Texnik jixozlar: Kompyuter, multimedia, slaydlar.

I. Tashkiliy qism. 1.O'qituvchining kirish so'zi. Davomatni aniqlash.


O'quvchilarni darsga hozirlash

II. O'tgan mavzuni so'rab baholash. Uyga berilgan klaster topshiriqlarni tekshirish..

III. Yangi mavzu bayoni.





1-Rasm. Orol tabiiy o'lkasi klasterini davom qildiring.




2-Rasm. Orol tabiiy o'lkasi klasterini davom qildiring.

3-Rasm. Orol tabiiy o'lkasini o'rgangan olimlar klasterini davom qildirning.



4-Rasm. Orol tabiiy o'lkasini tabiati klasterini davom qildirning.



5-Rasm.Orol tabiiy o'lkasi iqlimi klasterini davom qildiring.

V.Mavzuni mustahkamlash: “Klaster usuli asosida

Savol va topshiriqlar

1. Orol haqida dastlabki ma'lumotlar qachon va qaysi olimlar asarlarida keltirilgan va Orol qanday nomlar bilan atalgan? Klasterga joylashtiring.
2. Orol dengizi “qozon” i (tubi) qanday yo'l bilan paydo bo'lgan va u birinchi marta qachon suv bilan to'lgan? Yillar klasterini tuzing.
3. Orol dengizi suv sathining pasayishiga sabab bo'lgan omillarni aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. -Navoiy., 2003. - 108 b.
2. Vahobov H., Zaynudinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: TDPU, 2013.
4. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: Yangi asr avlod, 2006.